

HUDUD DAROMAD SALOHIYATINING MOHIYATI HAMDA MAZMUNINING GNOSEOLOGIIYASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11396669>

Qobulov Xotamjon Abdulkarimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Moliya” kafedrasi mudiri, i.f.n., professor

khqobulov@gmail.com

Annotatsiya: ushbu materialda hudud daromad salohiyatini tadqiq qilish natijalaridan bir lavha keltirilgan bo‘lib, unda hududiy salohiyatning tarkibiy elementlari tarkiblashtirilgan, jumladan hududiy daromad salohiyati tushunchasiga yanada aniqlik kiritilgan. Shuningdek, byudjet daromadlari manbalari, ularga nazariy qarashlar asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: hududiy salohiyat, hudud daromad salohiyati, soliq salohiyati, byudjetning daromad salohiyati.

Hududiy iqtisodiyotning tabiiy-resurs, mulkiy, mehnat hamda ilmiy-texnologik salohiyatiga mos keluvchi mahalliy byudjetlarni shakllantirish ularning mohiyati, tarkibiy o‘zaro bog‘liqligini aniqlash va soliqqa tortishning zamonaviy nazariyalari asosida byudjet-soliq jarayonini tashkil etishda ulardan foydalanish imkoniyatlarini belgilashga yangicha yondashuvlarni qo‘llashni talab etadi.

Salohiyat (lotincha «potentia» - kuch) manba, imkoniyat, vosita, zaxira ma’nolarini anglatadi, ular qandaydir vazifani hal qilish, qo‘yilgan maqsadga erishish uchun foydalaniladi, shuningdek alohida shaxs, jamiyat, davlatning ma’lum sohadagi imkoniyatlarini ko‘rsatadi.[1] Turli tarmoq fanlari va akademik manbalarda e’lon qilingan mazkur tushunchaning sharhlarini tahlil qilib, qayd etish kerakki, ushbu tushunchaning muhim xususiyatlari saqlanib qolgan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida salohiyat biron-bir jihatdan imkoniyatlar, kuch-qudrat darajasi; foydalanilishi mumkin bo‘lgan vositalar, imkoniyatlar majmui sifatida izohlanadi.[2] Falsafada salohiyat deganda yashirin imkoniyat, ichki kuch,

harakatga layoqat tushuniladi. Iqtisodiy fanlarda salohiyat deganda ko‘pincha qandaydir sohadagi mavjud vosita, imkoniyatlar tushuniladi. Salohiyatning bunday izohlari boshqa manbalarda ham uchraydi, qoidaga ko‘ra doimo gap yig‘indi to‘g‘risida borib, uning mazmuni imkoniyat, layoqatga va shu kabilarga mos keladi. Aynan ushbu xususiyatlar ayrim iqtisodiy va boshqa zahiralarni bildiradi hamda ular tegishli sharoitlarda imkoniyatlardan reallikka aylanishi mumkin.

Unga muvofiq hududiy salohiyatni hudud imkoniyatlarini hududiy boshqaruvning qo‘yilgan maqsad hamda vazifalariga muvofiq hududni iqtisodiy va ijtimoiy barqaror rivojlantirishni ta‘minlaydigan imkoniyat(layoqat)larni xarakterlovchi munosabatlar tizimi sifatida belgilash mumkin. Bunday imkoniyatlarni amalga oshirish mazkur hududda joylashgan institutsional tuzilmalar bilan sodir bo‘ladi, ular sirasiga davlat hokimiyati organlari, moliyaviy institutlar, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va shu kabilar kiradi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur subyektlar tomonidan o‘z funktsiya(vakolat)larini amalga oshirish oxir-oqibatda hududning barqaror rivojlanishini ta‘minlashi shart. Masalani bunday qo‘yish salohiyat tushunchasining mazmunini ochib berishga funksional yondashuvni aks ettiradi.

Shu bilan birga, istalgan layoqat yoki imkoniyat uni amalga oshirish maqsadida ma‘lum miqdoriy xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. Bu nuqtai nazardan hududiy salohiyat resurslar majmuasi sifatida ko‘rib chiqilib, undan foydalanish hududiy taraqqiyot maqsadlariga erishishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Bu resursli yondashuv deb nomlanib, aynan u hozirda eng ko‘p qo‘llanmoqda.


Ammo resurs asosining mavjudligi hozirgi kunda doimo ham muvaffaqiyat kafolati bo‘lmaydi. Bizning nuqati nazarimizda, hududni kompleks barqaror rivojlantirish maqsad hamda vazifalarini amalga oshirishni hududiy rivojlanishning ishlab chiqilgan strategiyasiga muvofiq u yoki bu resurslardan foydalanish va o‘zlashtirish jarayonini ta‘minlovchi zamonaviy tashkiliy, axborot, texnologik, institutsional, ijtimoiy infratuzilmaning mavjudligi ta‘minlaydi.

Shu bilan birga bizningcha, hududlar salohiyatining mohiyatini ochib berishga bo‘lgan mavjud yondashuvlar salohiyatning mohiyatini ochib berishdagi

ikkita mazkur yondashuvning yaxlitligini o‘z ichiga oladigan ushbu tushunchaning komplementar xususiyatini aks ettiradi.

Shunday tarzda, hududiy salohiyatni hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy omillarini maksimal mumkin bo‘lgan miqdorlari yig‘indisini hisobga oluvchi hududiy resurslarning umumlashtiruvchi xususiyati sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

Hududni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish asosi sifatida ko‘riladigan haqiqiy hududiy resurslar o‘tkazilayotgan islohotlar sharoitida hududiy iqtisodiyotni shakllantirishda o‘z ishtiroki uchun yangi turtki va yo‘nalishlar beradi. Ularni shartli ravishda ikki qismga bo‘lish mumkin: obyektiv va subyektiv (1-rasm).



1-rasm. Hududiy salohiyatning tarkibiy elementlari [3]

Modomiki, aynan resurslar hududdagi u yoki bu salohiyatli imkoniyatlar xususiyatlarini belgilaydi, hududiy taraqqiyot maqsad va vazifalarini tizimlashtirish maqsadida o‘zaro bog‘liq salohiyatlar tizimi sifatida hududning jami salohiyatini ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Obyektiv guruhga shartli ravishda tabiiy-iqlimiy, demografik, geosiyosiy salohiyatlarni, subyektiv guruhga esa iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional va axborot salohiyatlarini kiritish mumkin. Salohiyatning so‘nggi guruhi ko‘plab omillar ta’siri ostida shakllanadi, ulardan asosiylari insonning faol faoliyati sanalib, aynan bu bilan hududiy o‘zgarishlar(transformatsiya) jarayonida ularning katta mobilligi kuzatiladi.

Geosiyosiy salohiyat hududning hududlararo va davlatlararo aloqalar hamda kommunikatsiya tizimidagi holatini aks ettiradi.

Demografik salohiyat mazkur hududiy birlik aholisining miqdori, yoshi, jinsiy tarkibi, aholining tabiiy ko‘payishiga layoqati, shuningdek ishga layoqatli aholining tarmoqlar va faoliyat sohalari kesimidagi bandlik imkoniyatlarini aks ettiradi.

Tabiiy-iqlimiy salohiyati hudud taraqqiyotining boshlang‘ich shartlarini aks ettiradi, ya’ni ishlab chiqarishni tashkil etishdagi mavsumiylik, harorat tartibi, tabiiy resurslar-foydali qazilmalar, suv, biologik, iqlimiy va b. resurslarning mavjudligi, ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishda tarmoqlar mutanosibligini o‘zgartirish imkoniyatlari.

Iqtisodiy salohiyat hududning xalq xo‘jaligi majmuasi tizimidagi o‘rni va ahamiyati, uni kelgusida rivojlantirish imkoniyatlarini xarakterlaydi, oxir-oqibat hududning qolgan barcha resurs salohiyati ta’sirining bevosita aksi hisoblanadi. Bundan tashqari iqtisodiy salohiyat eng kompleks, tarkibiy rang-barang, ayni vaqtda eng ko‘p o‘rganiladigan hisoblanadi.

Ijtimoiy salohiyat ijtimoiy infratuzilma, ijtimoiy ta’minot va jamiyatning ijtimoiy rivojlanish darajasini xarakterlaydi.

Institutsional salohiyat tashkiliy-boshqaruv blokini o‘zida aks ettiradi. Unga hududda shakllangan tashkiliy tuzilmalar, shuningdek hudud darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning usul va vositalari kiradi.

Axborot salohiyati axborot resurslari bilan ta’minlanganlik, ularning sifat darajasi, hududiy rejalashtirish va prognozlashtirish jarayonini ta’minlash, shuningdek hududni kelgusida rivojlantirish maqsadlarida tezkor va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishda axborotning ahamiyatini xarakterlaydi.

Bizning tadqiqot predmetimiz sifatida iqtisodiy salohiyat tarkibidagi byudjet salohiyati hisoblanadi. Aynan iqtisodiy taraqqiyot darajasi ko‘pincha tegishli byudjetda moliyaviy resurslarni jamlashda hududlarning imkoniyatini belgilaydi, u o‘z navbatida tegishli hudud byudjetlarining daromad salohiyati bilan belgilanadi.

Bugungi sharoitda hududiy taraqqiyotning daromad bazasini yaratish moliyaviy fanlarning asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Mazkur muammoning turli jihatlariga ko‘plab olimlar e’tibor qaratadilar, ammo shu bilan birga uni o‘rganishga kompleks yondashuv zarur.

Agar byudjetning daromad salohiyatini umummiy ehtiyojlarni qondirish uchun mulkdorning resurslari ayrim qismini ijtimoiylashtirish jarayonining subyektiv rasmiylashuv natijasi sifatida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, aytish mumkinki iqtisodiyotning yangi qiymat yarata olish qobiliyati moliyaviy resurslarni yaratish bilan belgilanadi. Takror ishlab chiqarish moliyaviy jarayonlari byudjetning daromad salohiyatini shakllantirishda hal qiluvchi sanaladi, uning mazmuni va amalga oshirish shaklini belgilaydi. Bu hududiy byudjetlarning daromad tarkibini belgilovchi soliq siyosatiga nisbatan ham qo‘llaniladi, soliq, daromad va iqtisodiy salohiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqa mavjudligini yana bir marta tasdiqlaydi.

Hududlar moliyaviy daromadlarining tarkibi jamoatchilik sektori (byudjetlar, byudjetdan tashqari fondlar, davlat unitar korxonalar va byudjet tashkilotlari) daromadlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar hamda aholi daromadlaridan iboratdir.

Bunday daromadlarning shakllantirish manbalari keng ma’nodavlatning yalpi ichki mahsuloti hisoblanadi, modomiki daromadlarni shakllantirish bazalari ham mazkur hudud doirasida, ham undan tashqarida bo‘lishi mumkin. Ancha tor ma’nodavlat hudud daromad manbalari sifatida yalpi hududiy mahsulot, shuningdek mazkur hududda joylashgan mulklar tushuniladi.

Bizning fikrimizcha, hududning daromad salohiyati ishlab chiqarish va noishlab chiqarish jamg‘arish imkoniyatlarini, shuningdek, ma’lum bir ma’muriy-hududiy birlikda aholining shaxsiy iste’molining ma’lum darajasiga erishishni belgilaydi. Daromad salohiyati birinchi navbatda mazkur hududda joylashgan korxonalarining moliyaviy holati bilan belgilanadi.

Hududiy daromadlar tarkibida byudjet daromadlari muhim o'rinni egallaydi. Hududning ma'lum bir byudjet daromadlari yaratish imkoniyatini uning daromad salohiyati deb hisoblash mumkin. Byudjet daromad salohiyatining mohiyatini ochib berishda uning asosini moliya va moliyaviy resurslar tashkil qilishiga tayaniladi.

Hududiy byudjetlarning daromad salohiyatini shakllantirish va amalga oshirish ustuvorliklarini tanlashda yetakchi o'rin davlatga tegishli bo'ladi. Byudjet tizimidagi pul daromadlari mobilizatsiyasining potensial imkoniyatlari ko'p jihatdan tegishli organlarning byudjet vakolatlarini amalga oshirish sifatiga bog'liq bo'lib, bu subyektiv omil sanaladi.

Daromad salohiyati tushunchasining subyektiv ibtidosi byudjet daromadlarini shakllantirish jarayonini boshqarishning tashkiliy-moliyaviy munosabatlari tizimiga asoslanadi, u byudjet huquqi, byudjet tizimi va byudjet mexanizmi vositasida amalga oshiriladi. Daromad salohiyatining obyektiv va subyektiv boshlanishini bog'lovchi oraliq bo'g'in sifatida byudjetning o'ziga xos funksiyasidan, ya'ni uning jamiyatni rivojlantirishning aniq bosqichidagi ahamiyati mahalliy ahamiyatdagi masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan hajmda daromad resurslari bilan boshqaruv organlarini to'laqonli ta'minlashdan amaliy foydalanish natijasidan iborat.

Davlatning byudjet vakolatlari birinchi navbatda byudjet huquqi, byudjet tizimi va byudjet mexanizmining shakllanayotgan tizimiga nisbatan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan byudjet-soliq siyosatini shakllantirish bilan amalga oshiriladi. Byudjet jarayonini boshqarishning sanab o'tilgan tashkiliy-moliyaviy tushunchalaridan har biri byudjet daromadlarini shakllantirish sohasida byudjet munosabatlari faoliyatining o'ziga xos tashkiliy-moliyaviy va boshqaruv tomonlarini aks ettiradi. Agar bu mahalliy hokimiyatda yo'q bo'lsa, bunda byudjet siyosati mavjudligi to'g'risida bir nima deyish qiyin. Xususan, O'zbekiston hududiy siyosatining asosiy qoidalarida ko'rsatilganidek, byudjet-soliq sohasida hududiy iqtisodiy siyosat vazifalarini amalga oshirish uchun byudjetni shakllantirishdagi imkoniyatlarni ta'minlash va har bir hudud moliyaviy hamda soliq salohiyatini hisobga olish kerak. Ammo hududning moliyaviy, byudjet va soliq salohiyatini

uning iqtisodiy salohiyati bilan o‘zaro bog‘liqligi ancha murakkab bo‘lib, bir tomondan iqtisodiy salohiyat ularning asosi bo‘lib xizmat qiladi, boshqa tomondan esa, soliq salohiyati hududning iqtisodiy salohiyati hajmiga ta’sir qiladi.[4]

Shunday tarzda byudjet daromadlarini shakllantirishga bo‘lgan konseptual yondashuvlar amaliyotda uzoq muddatli istiqboldagi byudjet tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishi shaklida va rivojlanishning belgilangan strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha taktik tadbirlar rejasi shaklida amalga oshirilishi kerak.

Xususiyl moliyaviy tushuncha sifatida byudjet daromadlari mohiyatining namoyon bo‘lish shakllari faqatgina moliyaning iqtisodiy tushunchalari umumiy funksiyalari doirasida amalga oshirilishi mumkin.

Mazkur masala bo‘yicha muallifning pozitsiyasi ko‘plab zamonaviy iqtisodchilarining qarashlarini aks ettiradi va moliyaning mohiyati hamda funksiyalari tahliliga asoslandi. Natijada hudud byudjetining daromad salohiyatini aniqlashga aniqlik kiritdik va talqinini kengaytirdik. Byudjet daromad salohiyati tushunchasini uning toifali (“keng”) va amaliy (“tor”) jihatdan farqlash taklif etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Потенциал>
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. J. III. N-Tartibli/Tahrir hay‘ati: T.Mirzaev (rahbar) va boshq.; O‘zR FA Til va adabiyot instituti. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 301-b.
3. Кабулов Х. А. ПРИОРИТЕТНЫЕ ВОПРОСЫ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ДОХОДНОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА //ЭКОНОМИКА И БИЗНЕС теория и практика № 9-1 (67). – 2020. – Т. 9. – №. 1. – С. 147.
4. Кобулов Х. А. МЕСТО И РОЛЬ ДОХОДОВ МЕСТНОГО БЮДЖЕТА В УЛУЧШЕНИИ ДОХОДНОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА //Экономика и бизнес: теория и практика. – 2020. – №. 5-3. – С. 34-38.

5. Kobulov K. МЕТОДОЛОГИЯ ОЦЕНКИ НАЛОГОВОГО ПОТЕНЦИАЛА ТЕРРИТОРИИ //Архив научных исследований. – 2020. – Т. 35.

6. Akbarov M. A. et al. PRIORITIES FOR DEVELOPING THE INCOMES POTENTIAL OF THE REGIONS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 11. – С. 1334-1337.

7. Shokirovich K. A. DIRECTIONS FOR OPTIMIZING LOCAL BUDGETS IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF REGIONS //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2023. – Т. 22. – С. 190-196.

